

INSON HUQUQLARI UMUMJAHON DEKLARATSIYASI VA UNING QABUL  
QILINISHI

Jabborov Elbek Eshpo`latovich  
O`zbekiston Respublikasi  
Ichki ishlar vazirligi  
Qashqadaryo akademik litseyi o`qituvchisi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi tushunchasi, maqsadi, vazifasi, tuzilishi va mazmuni haqida so'z borgan.

**Kalit so'zlar:** inson huquqlari, umumjahon Deklaratsiyasi, erkinlik, hujjat, huquqiy me'yorlar, qaror.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) Bosh Assambleyasi tomonidan 1948-yilning 10-dekabrida qabul qilingan Inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi insonning asosiy huquqlari va erkinliklarini belgilovchi dastlabki muhim tarixiy hujjat hisoblanadi.

BMT Bosh Assambleyasi o`zining 1996-yildagi yig`ilishida fuqarolik va siyosiy huquqlar, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar haqida Faktlar qabul qilgan. Ularda har bir davlat o`z fuqarolari bo`lgan shaxslarga berilishi majbur bo`lgan haq-huquqlar ko`rsatilgan va kafolatlangan.

Inson huquqlari to`g`risidagi mazkur hujjat qabul qilinishidan avval bu sohada muhim ishlar amalga oshirilgan edi. Jumladan, inson huquqlari haqidagi me'yorlar ilk bor Millatlar Ligasi darajasida o`tkazilgan xalqaro Konferensiyada, BMT Nizomining ishlab chiqilishi paytida bir guruh davlatlar unga inson huquqlari masalalarini ifoda qiluvchi deklaratsiyani kiritishni taklif etgandilar. O`sha davrda BMT Nizomiga faqat umuminsoniy huquqlar va erkinliklarni rivojlantirish, hurmat qilish hamda ular faoliyatini amalga oshirishda hech qanday irqiy, jinsiy, diniy va til bo`yicha cheklashlar yoxud kamsitishlar bo`lmasligi haqidagi qoidani kiritishga muvaffaq bo`lingan.

San-Fransisko Konferensiyasi tugashi bilan, BMTning tayyorlov qo`mitasi o`zining birinchi yig`ilishida iqtisodiy va ijtimoiy Kengashi BMT Nizomining 68-moddasida o`rnatilganidek, inson huquqlarini qo`llash va quvvatlash ko`mitasi tuzish taklifini kiritadi. Mazkur taklif Kengash ishida muhokama qilinadi va uning qaroriga asosan 1946-yilda BMTning Inson huquqlari bo`yicha qo`mitasi tashkil etiladi.

Inson huquqi haqidagi xalqaro hujjat keng qamrovli bo`lgani uchun Komissiya 1947-yilning oxirida deklaratsiya bo`yicha, fakt bo`yicha va uni ishlatish bo`yicha ishchi guruhini tuzgan edi. Komissiya 1948-yil 24-maydan 15-iyungacha o`tgan sessiyada vakillarning takliflarini inobatga olgan holda Deklaratsiya loyihasini ko`rib chiqdi. Fakt bo`yicha va uni ishlatish bo`yicha loyihalar matni uning bajaralishi ta'minlanishiga BMTning 1948-yil 10-dekabrda Parijda o`tgan Bosh Assambleya sessiyasida muhokama etildi va qabul qilindi. BMT tomonidan tayyorlangan va xalqaro munosabatlar sohasida birinchi hujjat hisoblangan Inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi shu asosda vujudga keldi.

BMTning Bosh Assambleyasi 1948-yil 10-dekabrda Inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi qabul qilinganligini e'lon qildi.

Inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi Muqaddima va 30 ta moddadan iborat bo'lib, unda insonning asosiy huquqlari, qadr-qimmati, inson shaxsining benazirligi hamda erkaklar bilan ayollarning teng huquqligi o'z ifodasini topgan. Deklaratsiyaning 1-moddasida huquqiy jihatdan asoslangan falsafiy fikrlar bayon etilgan bo'lib, unda «Barcha odamlar erkin, qadr-qimmat va huquqlarda teng bo'lib tug'iladilar. Ular aql va vijdon sohibidirlar va bir-birlariga birodarlarcha muomala qilishlari zarur» deyiladi.

2-moddada har bir inson huquq va erkdan foydalanishda teng bo'lishi, u Deklaratsiyada e'lon qilingan barcha huquqlar va erkinliklar sohibi bo'lishi bayon etilgan: «Har bir inson biror bir ayrimachiliksiz, irki, terisining rangi, jinsi, tili, dini, siyosiy e'tiqodi yoki boshqa e'tiqodlaridan, milliy yoki ijtimoiy kelib chiqishdan, mulkiy ahvoli, qaysi tabaqaga mansubligi va boshqa holatlardan qat'iy nazar, mazkur Deklaratsiyada e'lon qilingan barcha huquqlar va erkinliklar sohibi bo'lishi kerak».

3-modda har bir insonning yashash, erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega ekanligi ta'kidlanadi.

Deklaratsiyaning 23-37- moddalari insonning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarini muhofaza qilishga bag'ishlangan.

Inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi barcha davlat va xalqlar amalga oshirishga intilayotgan inson huquqlariga doir xalqaro me'yorlarni hurmat qilish va ularga amal qilish zarurligiga muhim vazifa sifatida qaraydi.

Inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi ayrim davlatlarning qonunchiligiga ta'sir etib qolmasdan, shuning bilan birga, u BMT doirasida tuzilgan va ish olib borayotgan ixtisoslashgan tashkilotlarning faoliyatida ham muhim rol o'ynaydi. Deklaratsiyada qayd etilgan huquqiy me'yorlar ixtisoslashgan tashkilotlar tomonidan tuziladigan shartnomalarni tartibga solishda, ularning amalda bo'lishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasida shakllangan g'oyalar keyinchalik xalqaro maydonda qabul qilingan ko'plab xalqaro hujjatlarda o'zining huquqiy va mantiqiy rivojini topdi. Qochoqlar to'g'risidagi Konvensiya (1951), Xalqaro Mehnat Tashkilotining teng taqdirlov to'g'risidagi Konvensiyasi (1951) 1974-yilda e'lon qilingan «Qurolli to'qnashuvlar davrida va favqulodda holatlarda xotin-qizlar va bolalarni himoya qilish to'g'risidagi Deklaratsiya», 1975-yilda e'lon qilingan «Ilmiy-texnikaviy yutuqlardan tinchlik va insoniyat farovonligi manfaatlari yo'lida foydalanish to'g'risidagi Deklaratsiya», 1981-yilda e'lon qilingan «Din yoki e'tiqod uchun kamsitishning barcha shakllarini yo'qotish to'g'risidagi Deklaratsiya» shular jumlasidandir.

#### ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi - T.: «O'zbekiston», 2023.
2. Z.Islamov. «Ob'chestva, gosudrasta, pravo». T. 1,2 - T.: «Adolat» 1997.